

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

T.Egamberdiyeva

Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning
pedagogik xususiyatlari 7

R.Safarova, M.Abdullayev

Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish
usullari va metodlari 11

J.Obidov

Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik
mazmuni va amaliyotdagi holati 16

F.Madraximova

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb
pedagogik muammo sifatida 21

X.Tojiboyeva

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning
pedagogik imkoniyatlari 26

IQTISODIYOT

M.Yuldasheva, A.Kolkanatov

Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing 29

S.Ismoilova

Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan
ko'rsatkichlar tizimi 34

FALSAFA, SIYOSAT

A.Yuldashov

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy
asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'rni 39

D.Raxmatova

Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri
(xx asrning 40-50 yillar misolida) 47

TARIX

B.Matboboyev, A.Aloxunov

Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari 53

S.To'raxo'jayev

Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar
evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan 58

R.Ahmedov

Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning
yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) 63

Sh.Jumayev

Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun 70

I.Xo'jaxonov

Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi 74

A.Sarsenbayev, N.Turambetov

Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) 78

R.Akbarov

Ikkinci jahon urushi yillarda o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy
resurlardan foydalanish masalasi 85

R.Murodaliyev

So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida 92

N.Turambetov

Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim 98

X.Ergasheva

1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi 103

Sh.Xonimov

Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga
globallashuv jarayonlarining ta'siri 109

**SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN TURKISTON ASSR DA AMALGA OSHIRILGAN
BOLALAR EVAKUATSIYASI VA REEVAKUATSIYASI TARIXIDAN**

**ИЗ ИСТОРИИ ЭВАКУАЦИИ И РЕЭВАКУАЦИИ ДЕТЕЙ СОВЕТСКИМ
ПРАВИТЕЛЬСТВОМ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР**

**HISTORY OF CHILDREN EVACUATION AND REVACUATION BY THE SOVIET
GOVERNMENT IN TURKESTAN ASSR**

To'raxo'jaev Saidmurod Saidvoqqosovich¹

¹To'raxo'jaev Saidmurod Saidvoqqosovich

– Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asrning 20-yillarida Turkiston ASSR hududiga Rossiyaning ocharchilik yuz bergan Volgabo'y, Uraloldi hududlaridan och bolalarning evakuatsiya qilinishi va keyinchalik ushbu och bolalarni o'z yurtlariga reevakuatsiya qilinganligiga oid ma'lumotlar bayon qilinadi. Shu bilan birga, yurtimizga evakuatsiya qilingan bolalarga yordam ko'rsatishda davlat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning holati hamda keltirilgan bolalarni qayta reevakuatsiya qilinish sabablari va jarayonlari arxiv materiallar, ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Mavzuga oid manbalarni o'rganish orqali bolalar evakuatsiyasi haddan tashqari ko'payib ketganligi, buning natijasida yurtimizda mehribonlik va bolalar uylarining tashkil etilganligi, qolaversa, mehribon va bolajon xalqimizning och bolalarga ko'satgan g'amxo'rliklari kabi masalalar o'zining xolisona yechimiga ega bo'ldi. Xulosa o'rniда esa sovet hokimiyatি ushbu evakuatsiya va reevakuatsiya tadbirini pala-partish amalga oshirganligini, ya'ni keltirilgan bolalarni uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabilalar bilan ta'minlash ishlari va reevakuatsiya qilish harakatlari qoniqarsiz bo'lgan deb aytish mumkin.

Annotatsiya

В данной статье описывается эвакуация голодающих детей из Поволжья и Приуральских областей России в Туркестанскую АССР в 1920-е годы, и последующая реэвакуация этих голодающих детей на родину. А также, на основе архивных материалов и научной литературы проанализировано состояние реализации принятых государством мер по эвакуации детей в нашу страну, причины и процессы реэвакуации детей. Путем изучения соответствующих источников объективно оценены такие вопросы, как чрезмерное количество детских эвакуаций, создание в нашей стране приютов, а также забота наших добрых людей о голодных детях. В заключение, можно сказать, что советская властью эвакуационные и реэвакуационные мероприятия проводились разрозненно, то есть обеспечение жильем, питанием, одеждой и т. д. детей и эвакуационные работы были неудовлетворительными.

Abstract

This article describes the evacuation of starving children from the Volga and Ural regions of Russia to the Turkestan ASSR in the 1920s, and the subsequent re-evacuation of the starving children to their homeland. At the same time, the state of implementation of measures taken by the state to evacuate children to our country and the reasons and processes of re-evacuation of children were analyzed on the basis of archival materials and scientific literature. Through the study of relevant sources, issues such as the excessive number of children's evacuations, the establishment of orphanages and orphanages in our country, as well as the care of our kind and childearing people for hungry children have achieved an objective solution it has been. In conclusion, one can infer that the Soviet authorities carried out the evacuation and re-evacuation measures in a fragmented manner, that is, providing children with housing, food, clothing and the evacuation efforts were unsatisfactory.

Kalit so'zlar: evakuatsiya, reevakuatsiya, ocharchilik, och bolalar, mehribonlik va bolalar uyi, markaziy bolalar kichik komissiyasi.

Ключевые слова: эвакуация, реэвакуация, голод, голодающие дети, детский дом, приют, Центральный детский подкомитет.

Key words: evacuation, re-evacuation, famine, starving children, orphanage, orphanage, Central Children's Subcommittee.

KIRISH

XX asrning 20-40-yillaridagi O'zbekiston SSR va markaziy hokimiyat o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va harbiy munosabatlар tarixi mustaqillik tufayli o'zining xolisona talqiniga ega bo'la boshladi. Jumladan, hozirgi vaqtida sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Turkiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlар og'ir hamda ziddiyatli bo'lganligi arxiv manbalari yordamida chuqur o'rganilib, qiyosiy tahlillar orqali yoritilmoxda. Chunki bu kabi mavzular sovet davriga oid barcha ilmiy adabiyotlarda kommunistik partiya manfaatlariga mos holda yozilgan va tariximizning qora dog'li sahifalari yuzaga kelishiga sabab bo'lgan edi. Shuning uchun ham sovet

TARIX

mustamlakachiligi davridagi O'zbekiston tarixi va uning ko'plab mavzulari tarixiylik tamoyillari asosida qayta yozilishi kerak bo'ldi. Ana shunday mavzulardan biri bo'lgan sovet hokimiyatining Turkiston ASSRga amalga oshirgan "bolalar evakuatsiyasi" va "bolalar reevakuatsiyasi" siyosati ham istiqlolga erishish sababli xolis va batafsil yozila boshlandi. Ushbu maqolada sovet davlati hududida XX asrning 20-yillarida ro'y bergan ocharchilik tufayli ko'plab bolalarni bu falokatdan qutqarish uchun Turkiston ASSR hududiga ko'chirilishi va davlat tomonidan keltirilgan och bolalarni qabul qilishdagi sa'y-harakatlar hamda bu bolalarni o'z vatanlariga qayta reevakuatsiya qilish jarayonlari yoritildi. Sovetlarning bunday siyosati tufayli och bolalar evakuatsiyasi juda ko'payib ketadiki, oqibatda Turkistonda bolalarni qabul qilish, ularga boshpana, kiyim-kechak, oziq-ovqat berish, tibbiy yordam ko'rsatishda katta qiyinchiliklar va muammolar yuzaga kelgani, bu esa mehnatkash xalqimiz zimmasiga tushganligi ham manbalar orqali bayon qilinadi. Qolaversa, keltirilgan och bolalarni ko'rgan xalqimiz ularning taqdiringa befarq bo'lmay, o'zlarini azob-uqubatga, qiyin kunlarga duch kelganiga qaramay, rizqlarini kelgan bolalar bilan baham ko'rishganligi, hatto ayrim bolalarini asrab olganliklari haqidagi tarix arxiv manbalari yordamida o'rganildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turkiston ASSRda sovet hokimiyati tomonidan XX asrning 20-yillarida amalga oshirilgan evakuatsiya va reevakuatsiya siyosati mavzusining ayrim qirralari alohida tadqiqotlarda aks etgan bo'lib, hozirga qadar yaxlit tarzda ilmiy o'rganilmagan. Ushbu mavzuga oid foydalanilgan adabiyotlar xronologik jihatdan sovet davrida va mustaqillik yillarida chop etilgan adabiyotlarga bo'linadi.

XX asrning 20-yillarida ro'y bergan aholi evakuatsiya siyosatining asosi Rossianing markaziy rayonlarida 1920-1921-yillari hosilsizlik natijasida ocharchilik bo'lgani uchun aholini azob-uqubatlardan qutqarish bilan bog'liq bo'lgan. Xususan, 1920-yillar boshidagi ocharchilik tufayli Volgabo'yni va Uraloldi hududlarida ko'plab aholi o'z yurtini tashlab boshqa yurtlarga, jumladan, Turkistonga ko'chishga majbur bo'ladi. Ushbu jarayon sovetlar davrida bir qancha adabiyotlar va tadqiqotlarda bayon qilingan. Lekin ular mana shu o'rganilayotgan davr bilan bog'liqligi tufayli, mavzuni ilmiy jihatdan tadqiq etish va mohiyatini tushunib olish uchun yordam beradi, xolos. Bunday asarlar sarasiga ruslashtirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, kolxozlashtirish, aholini ko'chirish va qatag'on siyosati tarixi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur asarlarda voqeа-hodisalar kommunistik partiya manfaatlari nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lib, sovet hokimiyati amalga oshirgan evakuatsiya va reevakuatsiya siyosati ijobjiy jihatdan bayon qilingan. Umuman olganda, ushbu asarlarda 1920-yili Rossiyada ro'y bergan ocharchilik vaqtida amalga oshirilgan ishlari yuksak baholanib, hosilsizlik tufayli och odamlar va bolalarni azob-uqubatlardan qutqarish ishlari samarali bo'lgani, ularni hukumatga nisbatan ishonchi ortgani va o'zlashtirilmagan yangi yerlarni o'zlashtirilishga erishilgani kabi fikrlar o'z aksini topadi.

Mustaqillik yillarida vatanimiz tarixiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, uni mafkuraviy tazyiqlardan xoli tarzda, tarixiy manbalarni chuqur o'rganish orqali yoritish imkoniyati yuzaga keldi. Jumladan, sovet hokimiyati tomonidan Turkistonga bolalarni evakuatsiya qilish va keyinroq ushbu bolalarni o'z yurtlariiga qayta reevakuatsiya qilish siyosati tarixi ham tarixiy manbalar va tarixiy metodlar- tarixiylik, qiyosiy tahlil, xolislik tamoyillari asosida yoritila boshlandi. Hozirgi vaqtida tariximizning ushbu masala bilan bog'liq haqiqatini yuzaga chiqarish va evakuatsiya siyosatini xolisona o'rganishga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ldi. Buning natijasida bir qancha tadqiqotlar yuzaga keldi. Bunday tadqiqotlarda yurtimizga sovet hokimiyati tomonidan evakuatsiya qilingan xalqlar taqdiri va faoliyati hamda ushbu xalqlarning reevakuatsiya qilinishi masalasi milliy istiqlol mafkurasi va hozirgi zamон nazariy-uslubiy talablari nuqtayi nazaridan o'zining tarixiy yechimiga va xolisona talqiniga ega holda bayon qilindi. Lekin hozirga qadar sovet hokimiyatining amalga oshirgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi masalasi alohida tadqiqot obekti bo'lmagan.

Mazkur maqoladagi ma'lumotlar umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Umuman olganda, sovet mamlakatida 1921-yil boshida Volgabo'yni, Uraloldi hududlarida hosil yig'ib (hosilsizlik ro'y bergan edi-T.S) olish muammosi markaz rahbariyatini tashvishga qo'yandi. Bu hududlarda yuz bergan ocharchilik va uning azob-uqubatlari aholining katta yoshdagilari bilan birga, himoyaga muhtoj bo'lgan bolalarni ham o'z domiga tortadi. Ocharchilik

hududlaridagi ayancli ahvol Markaz rahbariyatini zudlik bilan tegishli chora-tadbirlar ko'rishga undadi. Sovet hokimiyyati shunday chora-tadbirlardan biri sifatida ocharchilik ro'y bergan hududlardagi och bolalarni yurtimizga evakuatsiya qilish ishlarni amalga oshirdi. 1921-yil kuzida ocharchilik ro'y bergan hududlarda 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan och bolalar soni 5 mln.798 ming nafargacha yetib, ulardan 120 ming nafari hosildor deb topilgan hududlarga, jumladan, Turkistonga ham evakuatsiya qilinganligi manbalarda qayd etiladi.[1,22] Turkistondagi barcha jamoat tashkilotlar esa Volgabo'yi, Uraloldidan evakuatsiya qilinayotgan ochlarga yordam berish uchun barcha zarur ishlarni amalga oshiradi.

Ocharchilik hududlaridan kelayotgan bolalarni joylashtirish ishlari "Markaziy bolalar kichik komissiyasi" tomonidan amalga oshirilgan. Bolalarni joylashtirish masalasi, xususan, ularni "Bolalar uylari"ga, turli tashkilotlar qaramog'iga, xonadonlarga berish orqali hal etildi. Ushbu ishlar ayrim qarorlar bilan mustahkamlab qo'yilgan edi. Dastlab, Turkiston MIQ va XKS 1921-yil 27-iyulda Butun Rossiya markaziy ijroiya qo'mitasi tomonidan qabul qilingan evakuatsiya masalasidagi qarorni muhokama qilib, o'lka o'z qaramog'iga dastlab 25 ming nafar bolani qabul qilish imkoniyati bor, degan xulosaga keladi.[2,15] Shuningdek, keltiriladigan bolalarni maktab, internat, "Bolalar uylari"ga va joy yetishmasa, aholi oilalariga ham joylashtirishga kelishib olinadi. 1921-yil 28-sentabrda Turkiston MIQ va XKS ning 108-sonli qo'shma majlisi qarori qabul qilinadi.[3,50] Qarorda Turkiston Rossianing ocharchilik hududlariga yordam berish bilan cheklanmasdan, o'z qaramog'iga rasman 200 ming atrofida Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridan evakuatsiya qilinayotgan ochlarni qabul qilishi kerakligi ko'rsatiladi. [4,56] Bu kabi buyruqlar Rossianing ocharchilik hududlaridagi ochlarning yurtimizga oqib kelishiga sabab bo'ldi.

Sovet rahbariyati Turkistondagi vaziyatning birmuncha qulayligini e'tiborga olib, TASSR hukumatidan Rossianing ocharchilikka uchragan rayonlaridagi dehqonlar, ishchilar va ularning oilalarini qabul qilishni talab etdi. Natijada respublikamizga 1921-yil oktyabriga kelib, jami 330 ming och qolganlar evakuatsiya qilinadi. [5,361] Ocharchilik hududlaridan evakuatsiya qilinayotgan bolalarni Turkistonning Farg'ona va Yettisuv viloyatlariga, shuningdek, respublikaning qolgan hududlariga joylashtirish ko'zda tutilgan. Masalan, 1922-yil may oyida respublikaga keltirilgan 500 nafar bolaning 50 nafari Andijonga, 100 nafari Namanganga, 100 nafari Qo'qondagi xonadonlarga, 200 nafari Jalolobodga, qolganlari esa Skobelev (Farg'ona) va Xo'jandga taqsimlanib joylashtiriladi. [6,36] Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridan yurtimizga evakuatsiya qilingan, och-qochoq tariqasida keltirilganlarni boshpana va boshqalar bilan ta'minlash ishlari 1922-yildan yanada mushkullasha boshlaydi. Bu vaqtda Farg'onada ham ocharchilik qaytadan ro'y berishi tufayli aholi azob torta boshlaydi. Markaz bu muammoga jiddiy e'tibor qaratmay, evakuatsiyani davom ettiraveradi. Namangan uyezd ijroiya qo'mitasi 1921-yil 22-dekabrida Farg'ona viloyat OYO komissiyasiga qilgan murojaatida «...bolalarni yuborishni to'xtatishingizni so'raymiz, chunki shaharda ularni joylashtirishga bino qolmadni. ...buning ustiga bolalarga bergani ichki kiyim, choyshab, krovat, matras va ,shuningdek, oziq-ovqatlar yo'q... [Viloyat] xalq maorifi bo'limidan internatlardagi ota-onasi bor [mahalliy] bolalarni chiqarish to'g'risida taklif kiritishingizni so'raymiz», deyiladi.[7,75] Ammo bolalar evakuatsiyasini to'xtatishga oid bunday murojaatlar, iltimos hamda talablarga qaramasdan Rossiyadan kelayotganlar oqimini to'xtatish juda qiyin edi.

Respublikadagi ocharchilik ahvoli Rossiya ochlarni o'z yurtlariga reevakuatsiya qilish masalasini dolzarbligini ko'rsatdi. 1922-yili Turkiston markaziy evakuatsiya boshlig'i A.S.Sushko Rossiyadan keltirilgan ochlarni ona yurtlariga qaytarish masalasi bo'yicha xizmat safari bilan Moskvaga boradi. U BMIQ qoshidagi Markaziy evakuatsiya rahbariyati bilan uchrashib, reevakuatsiya qilishning tashkiliy masalalarini hal etadi. [1,102] Rossiyadan keltirilgan ochlarni uyushgan holda qayta evakuatsiya qilish jarayoni 1922-yil avgust oyidan boshlanadi. Bu ish bilan 1922-yil 12-avgustda nomi o'zgargan aholini evakuatsiya qilish bo'yicha Turkiston evakuatsiya bosh boshqarmasi tashkiloti shug'ullanadi.[8,432] Turkiston MIQ va XKS rahbariyati reevakuatsiya qilinayotganlar uchun imkon qadar shart-sharoit yaratib berishga harakat qildilar. Xususan, Rossianing ocharchilik hududlaridan kelgan ochlarni Turkistondan reevakuatsiya qilish jarayonida ularga ma'lum miqdorda oziq-ovqat berish zarurligi ta'kidlangan edi. Masalan, 1922-yil sentyabr oyida 30-40 mingta ochlar reevakuatsiyasi ko'zda tutilib, ularning har biriga 10 kunlikdan oziq-ovqat berilsa, jami 300-400 ming payok bilan ta'minlashga to'g'ri kelgandi. [9,453] Shuningdek, reevakuatsiya tariqasida Qozon, Ufa, Samara, Orenburg va boshqa ocharchilikka uchragan

TARIX

hududlarga ketayotganlarni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash ishlari Turkiston Respublikasi zimmasiga yuklatiladi. Bunga misol tariqasida quyidagi arxiv ma'lumotni keltirish mumkin; 1922-yil 5-dekabrida Turkiston sog'liqni saqlash xalq komissarligining BMIQ qoshidagi «Bolalar komissiyasi»ning ocharchilik oqibatlarini tugatish markaziy komissiyasi bilan kelishuviga muvofiq, Farg'onadan Volgabo'yiga ketayotgan och bolalar reevakuatsiyasi uchun 36 mingta oziq-ovqat yemishi ajratilgan.[10,17]

Lekin bolalar reevakuatsiya jarayonini amalga oshirishda tashkiliy masalalar va moliyaviy qiyinchiliklar ham yuzaga kelgan. Shuning uchun Turkiston MIQning “Markaziy bolalarga yordam kichik komissiyasi” respublika ichki ishlar xalq komissarligiga murojaat qilib, Volgabo'yi va Uraloldi hududlaridan keltirilgan och bolalarni reevakuatsiya qilishda lotto, lotereya va arg'imchoq o'yinlarini joriy etish bo'yicha ruxsat berishini so'raydi. Bunga javoban, 1923-yil 28-iyunida Turkiston ichki ishlar xalq komissarligi tashkiliy-ma'muriy ishlar boshqarmasi boshlig'i Malishev Toshkentda bolalar reevakuatsiyasi jarayonini tezlatish, lotto, lotereya va arg'imchoq o'yinlaridan tushadigan mablag'ni shu maqsadda sarflashga, istisno tariqasida, qarshiligi yo'qligini bildiradi.[1,114] Natijada respublikada shunga o'xshash xayriya tariqasida yig'ilgan pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi ta'minotlar reevakuatsiya tariqasida Rossiyaga ketayotganlar uchun sarflanadigan bo'ldi. Turkistonda 1924-yili ham reevakuatsiya jarayoni davom etdi. Endilikda ochlarni o'lkadan ko'chirish bilan Turkiston qishloq xo'jaligi qo'mitasi shug'ullandi. 1924-yil 3-apreldagi ma'lumotga ko'ra, Volgabo'yidan kelgan bolalardan 53 nafari Turkistondan o'z yurtiga jo'natilgan.[11,5] Turkiston rahbariyati ochlar reevakuatsiyasini tezlashtirish uchun keng miqyosdagi tadbirlar ishlab chiqish harakatlarini susaytirmadi. Ayni vaqtida ko'rileyotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o'lkadagi ochlarni o'z yurtlariga reevakuatsiya qilish jarayoni juda katta qiyinchiliklar bilan o'tardi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu davrda Rossiyaning markaziy guberniyalarida ocharchilik o'zining dahshatli asoratlarini ko'rsatdi. Natijada, bu hududlardan yuz minglab och qolganlar o'z oilalari bilan sovet hokimiyyati tomonidan Turkiston ASSRga evakuatsiya qilindi, yana yuz minglab och qolgan qochoqlar turli yo'llar bilan Toshkent, Samarkand, Skobelev (Farg'ona) va boshqa shaharlarga kelib o'rashadi. Ularning oziq-ovqat va kiyim-kechak ta'minoti esa mahalliy aholi zimmasiga tushdi. Bolajon Turkiston xalqi esa evakuatsiya qilingan och bolalarni o'z bag'riga olib, ularga boshipana, oziq-ovqat, kiyim-kechak berib, o'zlarini farzandlari rizqini ular bilan birgalikda baham ko'rdilar. Aytish mumkinki, Turkiston xalqi keltirilgan bolalar mushkulini yengillashtirishda bor imkoniyatlarini ishga solib, bolalarni muqarrar o'lim holatlaridan qutqarishda faol qatnashdilar. Shuning uchun ham, faqat 1923-yilning oxiri va 1924-yilda evakuatsiya qilingan va qochib kelgan ochlarning bir qismigina o'z yurtlariga qaytishni xohladi, qolganlari esa Turkistonni o'z uyidek tark etishni xohlamadi. [12,35]

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

- O'zbekistonning yangi tarixi markazi. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinci kitob. Toshkent.:“Sharq”, 2000. –B.361
(Center of New History of Uzbekistan. New history of Uzbekistan. Uzbekistan during the Soviet era. The second book. Tashkent.:Sharq, 2000. -P.361)
- Rasulov A. Turkiston xalqi bag'rikengligi. T.: “Yangi Nashr”, 2011. –B.52-102
(Rasulov A. Tolerance of the people of Turkestan. T.: “New Edition”, 2011. –P.52-102)
- Qurbanova N. Rossiya imperiyasining aholini ko'chirish siyosati: Tarix va taxlil (Fargona vodiysi misolida).“Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda” mavzusidagi ikkinchi respublika ilmiy anjumani. Farg'ona. 2012. – B.201
(Kurbanova N. Resettlement policy of the Russian Empire: History and analysis (on the example of the Fergana Valley). The second republican scientific conference "History of the Fergana Valley in new research." Farg'ona. 2012. – P.201)
- Hamitov R. Boltiqbo'yi xalqlarining O'zbekistonga ko'chirib keltirilishi. “Ijtimoiy fikr-inson huquqlari” jurnali. №3, 2009. –B.124
(Hamitov R. Resettlement of the Baltic peoples to Uzbekistan. Journal of Social Thought and Human Rights. №3, 2009. –P.124)
- Rejabboev N. Turkistonda oziq-ovqat siyosati (1917-1924 yillar). T.: “Turon-Iqbol”, 2021. –B. 172 (Rejabboev N. Food policy in Turkestan (1917-1924). T.: “Turon-Iqbol”, 2021. –P. 172)
- Rasulov A. Turkiston va Rossiya xalqlari o'rtasidagi munosabatlar. T.: “Turon-Iqbol”, 2016. –B. 56 (Rasulov A. Relations between the peoples of Turkestan and Russia. T.: “Turon-Iqbol”, 2016. –P. 56)

7. Rajabov Q. Bir asr muqaddam hozirgi O'zbekiston hududida dahshatli ocharchilik kuzatilgan: minglab odamlar qirilib ketgan, kannibalizm holatlari qayd etilgan. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi. 2021 yil oktyabr sonidan.

(Rajabov K. A century ago in the territory of modern Uzbekistan there was a terrible famine: thousands of people died, cases of cannibalism were recorded. The newspaper "Literature and art of Uzbekistan". From the October 2021 issue.)

8. O'z MA, R-17 fond, 1-ro'yxat, 287-ish, 50-52-varaq
(Oz MA, R-17 fund, list 1, case 287, pages 50-52)
9. O'z MA, R-17 fond, 1-ro'yxat, 350-ish, 453-varaq
(Oz MA, R-17 fund, list 1, case 350, sheet 453)
10. O'z MA, R-17 fond, 1-ro'yxat, 749-ish, 17-varaq
(Oz MA, R-17 fund, list 1, case 749, page 17)
11. O'z MA, R-17 fond, 1-ro'yxat, 954-ish, 5-varaq
(Oz MA, R-17 fund, list 1, case 954, page 5)
12. O'z MA, R-17 fond, 1-ro'yxat, 927-ish, 36-varaq
(Oz MA, R-17 fund, list 1, case 927, page 36)